

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra Viloyatda 3096 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 806 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 % i) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 703 tasi (22,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 269 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 222 tasi (7,2 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-sentabr holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalaridan 10 787,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	10 787,9	107,8
Termiz shahri	1171,8	104,4
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	396,6	108,9
Bandixon tumani	187,1	130,6
Boysun tumani	164,5	106,8
Denov tumani	771,2	110,6
Jarqo'rg'on tumani	835,9	105,2
Qumqo'rg'on tumani	485,6	113,8
Qiziriq tumani	268,6	103,4
Muzrabot tumani	577,7	109,1
Oltinsoy tumani	261,0	107,8
Sariosiyo tumani	657,2	104,8
Termiz tumani	1047,0	124,5
Uzun tumani	331,6	109,4
Sherobod tumani	764,9	108,2
Sho'rchi tumani	722,2	112,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalaridan joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (11 926,4 ming so'm), Termiz shaharda (5 615,3 ming so'm), Muzrabot (3 668,8 ming so'm) Sherobod (3 545,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 234,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Bandihon tumanida (127,1 %), Termiz tumanida (120,9 %) Qumqo'rg'on tumanida (111,2 %), Termiz tumanida (120,9 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-avgust oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9 746,9 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (90,4 %)ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 327,1 mlrd so'm (3,0 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 488,5 mlrd so'm (4,5 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 225,4 mlrd so'm (2,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-avgust oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 49,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2,0 m ga ko'paygan), 3 055,4 aroq ming l 100%li spirt aroq mahsulotlari (38,4 m. ga ko'paygan) hamda 718,5 ming tonna tarkibida 15 %dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari-ming l (8,9 m. ga) ga ko'paygan), shuningdek 43,5 ming tonna xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft-ming t (91,7 % ga ko'paygan), 13, 1 tabiiy qumlar-t (43,9 % ga kamaygan).

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Aroq, ming litr	104,5	79,5	3 055,4
Qoramollar uchun tayyor ozuqa, tonna	9 244	9 638	20 832
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	14099,0	21 194,9	23 641,2
Neft bitumi, ming t	35,7	32,4	28,7
Tabiiy qumlar, ming t	13,0	29,8	13,1
Toshko'mir, ming t	206,9	407,2	452,7
Xom neft, ming t	52,9	47,4	43,5
Boshqa paxta chigiti, ming t	13,5	6,8	25,0
Kepak, ming t	5,8	6,7	17,0
Portlandsement, ming t	616,5	576,6	238,6
Zargarlar tayyorlagan oltin va kumush buyumlar va ularning qismlari, t	-	-	0,6

*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,8 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 34,0 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,1 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2024-yilning yanvar-avgust oylarida 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,6 % (0,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,2 % (26,7 %), quyi texnologiyali 73,5 % (70,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 92,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 74,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
---------------------	-------------------------	-------------------------	------------------------



Elektrenergiya, mln.kvt.s	288,1	513,5	474,6
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	16,0	15,2	11,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 4,3 m. ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,5 m. ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	5,4	5,8	25,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	38,5	58,1	93,9
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	10,0	42,0	12,0

**2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 6 992,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 64,8 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 60,5 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

